

## Ishlab chiqarish xamda o'quv jarayoni hamjihatligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida suv resurslaridan samarali foydalanish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida", 2020 yil 11 avgustdagi PQ-4801-son qarorning 10 punktida qo'yilgan vazifalarni bajarish maqsadida Institutimiz rektori U.Umurzaqovning 2021 yil 12 maydagi 481/t buyrug'iga asosan Gidromelioratsiya fakultetining "Suv xo'jaligi va melioratsiya" bakalavriyat ta'lim yo'nalishi 3-bosqich 1-5 gurux talabalari o'quv reja asosan Jizzax viloyati Do'stlik tumanida ishlab chiqarish amaliyotini o'tashga jalb qilindi.



Talabalarning ishlab chiqarish amaliyoti eksperiment tariqasida Jizzax viloyatida tashkil qilinishida quyidagilar inobatga olingan:

1. Irrigatsiya va melioratsiya ob'ektlari bilan yaqindan tanishish;
2. Ish jarayonlarini kuzatish;
3. Loyiha xujjatlari bilan tanishish;
4. Qurilish va suv xo'jaligi ob'ektlariga davriy ravishda olib chiqish orqali amaliyot va institutda olgan bilimlarini mustaxkamlashga yo'naltiriladi.



Kelgusida erishilgan natijalar bo'yicha saytda xabar berib turiladi.

**Irrigatsiya va melioratsiya kafedrasini mudiri, prof. Begmatov I.A**  
**TIQXMMI matbuot xizmati**